

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o 'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojida falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 101.1

INNOVATSION IQTISODIY RAQOBAT MUHITINING YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGIGA TA'SIRI**ВЛИЯНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ****THE IMPACT OF AN INNOVATIVE ECONOMIC COMPETITION ENVIRONMENT ON YOUTH ECONOMIC ACTIVITY****Tolipov Baxtiyor Xamitovich** 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning deterministik asoslari, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретические и методологические основы развития экономической активности молодежи в Новом Узбекистане, детерминированные основы развития экономической активности молодежи в Новом Узбекистане на основе культуры здоровой конкуренции, перспективы развития экономической деятельности изучается молодежь Нового Узбекистана на основе культуры здоровой конкуренции. Также анализируются детерминированные основы развития экономической активности молодежи на основе культуры здоровой конкуренции.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan, the deterministic foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition, and the prospects for the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition. The deterministic foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition are also analyzed.

Kalit so'zlar: yoshlar iqtisodiy faolliqi, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, deterministik asos, sog'lom raqobat madaniyati.

Ключевые слова: экономическая активность молодежи, социальные закономерности, традиционализм и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системно-функциональный, детерминистический базис, культура здоровой конкуренции.

Key words: youth economic activity, social laws, tradition and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systematic and functional, deterministic basis, culture of healthy competition.

KIRISH

Yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantiradigan yuqoridagi omillar hozirgi davr iqtisodiy tizimlari bilan hamohangdir. O'zbek yoshlari jamiyatdagi o'zgarishlar natijasida ish bilan bandlik, iqtisodiy faollik singari fazilatlarini yangi innovatsion turmush tarzi bilan birgalikda olib bormoqdalar. Zamonaviy iqtisodiy faollik qaysi ijtimoiy-psixologik, motivatsion omillarda namoyon bo'lmoqda? Hozirgi kunda yoshlarning iqtisodiy faolliqi zamonaviy talablar darajasidagi faollik hisoblanadimi? Ushbu savollarga javob berishdan avval iqtisodiy faollik natijasida kelib chiqqan iqtisodiy tushunchalarni ijtimoiy-axloqiy tomonlarini ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Iqtisodiy faollashtirish natijasida yoshlar tadbirkorlik, ishbilarmonlik, biznesmen, oliy toifadagi muhandis, investor, dehqon-fermer, tashabbuskor singari shaxsiy sifatlarga ega bo'ldilar. Ushbu zamonaviy shaxsiy sifatlar transformatsiya va innovatsiya sharoitida yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yoshlarning iqtisodiy faolliqi F.Primov, Y.Ernazarova, Sh.Quvondiqov, J.Mavlyanov, Sh.Azamatovlarning ilmiy kuzatishlarida aks etgan. MDH mamlakatlarida G.P.Voshanova,

G.S.Godzina, L.G.Golovach, V.YE.Savchenko, D.Saxal, D.I.Kokurin, O.A.Latuxa, A.D.Sheremet, Y.V.Sherbinina kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu tadqiqotchilar diqqatini posttotalitar tuzumdan keyingi ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, tizimli transformatsiya jarayonlari, insonning iqtisodiy huquq va erkinliklarini milliy zaminlarda ro'yobga chiqarish, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyaning ilmiy texnik va jamiyat taraqqiyotiga oid masalalar o'rganilgan. Ulardagi ilmiy nazariy va ijtimoiy falsafiy xulosalar, tahlil usullari, sotsiometrik kuzatuvlar bizning izlanishlarimiz uchun ham muhim. Xorijlik olimlardan E.Porter, E.Maykl, K.Y.Tot'yev, A.Y.Yudanov, G.L.Azoyev, A.P.Gradov, M.V.Konotopov, R.A.Fatxutdinov, A.Y.Kibanov hamraqobat jarayonini sog'lomlashtirishning ayrim masalalarini o'rganganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadbirkorlik, avvalo, xulq-atvor, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatlarning tartibga solingan faoliyat bo'lib, yoshlarning ilk tavakkalchiligi oldida turuvchi mustaqil axloqiy tanlovning mavjudligini nazarda tutuvchi erkinlikdir. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy mazmuniga ko'ra: "...kichik tadbirkorlik faoliyati bu – amaldagi mavjud qonunlar doirasida faoliyat yuritadigan hamda o'zi va jamiyat manfaati uchun yuqori aqliy va jismoniy salohiyatga, xususiy mol-mulki va jamg'armasiga ega bo'lgan, turlitovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi, o'z faoliyati davomida ixtirolarni amalga oshiruvchi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni o'z zimmasiga olib, foyda ko'rishni mo'ljallovchi, nostandart fikrlashga moyil bo'lgan tashabbuskorning ishbilarmonlik faoliyati" ekani ta'kidlanadi. Tadbirkorlik yuqoridan buyruq asosida yuzaga keladigan jarayon emas. Tadbirkorlik yoshlarning shaxsini namoyon qiluvchi, imkoniyatlarini va ehtiyojlarini birlashtiruvchi ijodiy faollik natijasidir. Bu faoliyat davomida tadbirkor manfaat, o'zini-o'zi tarbiyalash, cheklash, burch, sha'n hissi, shaxsiy axoqiy javobgarlik hissiga asoslangan bo'ladi.

Iqtisodiy faollik iqtisodiy ongning amaliy ko'rinishi, iqtisodiy madaniyatning real hayotda namoyon bo'lishidir. Yoshlarning zamonaviy madaniyatni o'zlashtirishi va ayni paytda shu madaniyat asosida iqtisodiy taraqqiyotga erishishi iqtisodiy madaniyatda bir pog'ona balandga ko'tarilganini bildiradi. Ayrim tadqiqotlarda aytilishicha: "...jamiyat iqtisodiy madaniyatini ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan iqtisodiy faollik va munosabatlarning takomillashuvini, bir bosqich, holatdan boshqasiga o'tishini aks ettiruvchi tizim sifatida ham olib qarash mumkin". Ushbu qarashga e'tiroz sifatida aytish mumkinki, iqtisodiy madaniyat ma'lum bir davrning iqtisodiy borlig'idagi jarayonlarni, munosabatlarni qamrab oluvchi, o'z zamon odami iqtisodiy xatti-harakatlarining moddiy ko'rinishini bildiradi. Iqtisodiy faollik esa iqtisodiy ongning amaliyotda namoyon bo'lishini aks ettirib, u madaniyat darajasiga chiqmasligi ham mumkin.

Transformatsion jarayonlarda yoshlar iqtisodiy faolligi bir ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidan yangi munosabatlar tizimini keltirib chiqaradi, milliy-etnomadaniy xususiyat kasb etgan sifatlarni zamonaviylashtiradi. Bu jarayonda o'tmish tajribalar to'la inkor etilmaydi, yaroqli, sinovdan o'tgan elementlar saqlab qolinadi. Bunga misol sifatida hunarmandchilik, kasanachilik, xalq amaliy san'ati va turli milliy hunarmandchilik mahsulotlar zamonaviy texnologiya asosida innovatsion yarmarkalarda o'z xardorini topmoqda va ayniqsa, turizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Iqtisodiy faollik jamiyatimizda bozor munosabatlari negizida vujudga kelib, ishlab chiqaruvchi kuchlar va munosabatlarning yangi sifat belgisi bo'lib qolmoqda. Uning yoshlar qatlamini qamarab olishini obyektiv omillar belgilab bermoqda. Chunki yoshlar qatlami ehtiyoj, manfaat, talab va taklif, qo'shimcha qiymat qonunini yaxshi o'zlashtirgan ijtimoiy guruhni tashkil etmoqda. Aynan ularda yangilikka moyillik, yangi tafakkur tarziga moyillik, tez moslashuvchan, tez o'zgartiruvchanlik sifatlari ko'proq. Bozor iqtisodiyoti qonuniyati jamiyat sohalariga chuqur singib, islohotlar chuqurlashib bormoqda.

Transformatsion va innovatsion o'zgarishlarning ilk boshlanish davrini mamlakatimizda bozor munosabatlarining olib kirilishi bilan bog'lash mumkin. Tadqiqotchi R.Ro'ziyevaning fikricha, "Bozor munosabatlari deganda ko'pinchailmiy adabiyotlarda xususiy mulk, mulk shakllari tushuniladi yoki asosiy e'tibor mulkka qaratiladi. Mulkning pozitiv, demokratik xususiyatlarini e'tirof etgan holda aytishimiz kerakki, mulk ham erk, erkinlik ifodasidir. Mulkni o'z iqtidori, kuchi, erkiga ishongan kishigina yarata oladi. Mute kishiga berilgan mulk uni battar mutega aylantiradi. Shuning uchun o'z iqtidori, kuchi va erkiga ishongan kishigina mulkning haqiqiy egasi, xususiy mulkdor bo'la oladi.

Mulki yo'q odam mulki bor odamga yo bevosita yoki bilvosita bog'liq, hatto qaram bo'ladi. Agar jamiyat va davlat xususiy mulkdorlar sinfini yaratishni bosh maqsad qilib qo'ysa, mulki yo'q kishining mulkdorga qaram bo'lishi turgan gap. Jamiyatning barcha a'zolarini xususiy mulk egasi, mulkdor qilishni tasavvur etib bo'lmaydi.

FALSAFA

Bozor munosabatlari hamma narsani, hatto insonning aqlu idroki, quvvati, topqirligini ham oldi-sotdi obyektiga aylantirishi mumkin". Bundan keyingi iqtisodiy hayot ana'aviy tafakkur tarzidan voz kechib, pragmatik, pozitiv, innovatsion tafakkurga o'tishga transformatsion asos yaratmoqda. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish tizimlari negizida shakllanayotgan zamonaviy yoshlar iqtisodiy faolligi korporativ, sillektiv, virtual asoslarga singib boradi. Endi yoshlar tadbirkorligi savdo-sotiqni oddiy, ibtidoiy shaklidan, "brend savdosi", "virtual magazin", "internet do'kon", "intellektual mulk savdosi" singari yangi sohalarga o'sib o'tadi. Inson mehnati tobora ijodiy, yaratuvchanlikka o'tib borishi bilan va shunga muvofiq ravishda aqliy-intellektual faoliyat bilan band bo'lgan yoshlarning soni ortib borishi ro'y bermoqda. Bu o'z-o'zidan yoshlarning barcha imkoniyatlarini, "birinchi navbatda, ijodkorlik qobiliyatini namoyon qilishi uchun sharoit yaratadi, shu bilan birga, fan va texnika rivojining o'zi ham inson omiliga, uning madaniyatiga bog'liq bo'lib qolaveradi".

Yoshlarni iqtisodiy faolligining rivojlanishini ta'lim sohasidagi islohotlarning izchilligida deb biluvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu munosabat bilan Farg'ona viloyati Oltiariq va Yangiqo'rg'on tumanlarida sotsiologik so'rovnoma tashkil etildi. "Yoshlarning iqtisodiy faollashuvida ta'lim va maorif tizimini o'rnini qanday belgilaysiz?" - degan savol anketasiga respondentlarimizning 82 foizi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni ijobiy baholaydi. Ushbu respondentlar ichida ziyolilar 62, tadbirkorlar 27, ishchi-xizmatchi va uy bekalari, fermerlar 11 foizni tashkil etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar tadbirkorlar fikriga ham ijobiy ta'sir etgan. Tadbirkorlar yaratayotgan xususiy mulki kimlar, qanday fazilatli avlod qo'lga tushishi haqida fikr yuritadilar, shu bois ular farzandlarining ilmi, yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar bo'lib etishishidan manfaatdor. Aynan tadbirkorlar (93 foiz) yoshlarda iqtisodiy faollik va iqtisodiy bilimlarni shakllantirishni ustuvor vazifa deb biladilar. Bunday fazilatlarsiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanib bo'lmashligini ular to'g'ri anglaydilar.

Respublikamizda "ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan 2014 yilda o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma qatnashgan respondentlarning 97,3 foizi mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlardan mamnun ekanini bildiradilar. Bu ko'rsatkich 2011 yili 91,0 va 2012 yili 97,1 foiz atrofida edi. Jamiyatimizda iqtisodiy islohotlarning jadallashishi, davlatimiz tomonidan yoshlar iqtisodiy faolligini va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bois fuqarolar ijtimoiy fikridagi ijobiy munosabat barqaror voqelikka aylangan.

Yurtiga xizmat qilish el-yurt manfaatlari bilan yashash kerak, degan g'oyaga yaqin. Yoshlarning iqtisodiy faolligiga ta'sir o'tkazadigan innovatsion va transformatsion o'zgarishlarni dinamikasi, ushbu ta'sir natijasida qaytar bog'lanish, diaxronik va sinxronik taraqqiyotini tahlil qilish, yoshlarni bu boradagi faollashishini funktsionallashib borishi jarayonida: 1) jamiyatimiz yoshlarining iqtisodiy faollashishiga, innovatsion iqtisodiyotga nisbatan ehtiyoji o'sib borishi obyektiv zaruriyat bo'lib, hozirgi ijtimoiy-tarixiy vaziyat taqozosidir; 2) ilmiy -texnik, texnologik o'zgarishlar, mintaqadagi iqtisodiy raqobat, YAIM o'sishga bo'lgan geomafkuraviy vaziyat keskinlashuvi va uning geoeconomik eskalatsiyasi o'zbek yoshlarining global va milliy iqtisodiy tafakkurini shakllantirib, iqtisodiy faollashtirish meyoriy -huquqiy bazasini va institutsional tizimini vujudga keltiradi; 3) "ehtiyoj-manfaat-inson" tizimi unsurlarining o'zaro munosabatlari murakkablashib borishi bilan, ularni faollashtirish "trayektoriyasi" kengayadi; 4) yoshlar iqtisodiy faolligini, iqtisodiy madaniyatini va umuman ta'lim-maorif tizimini "iqtisodiy faollik ustaxonasi"ga aylantirish ustuvor yo'nalishga aylanadi; 5) yoshlar iqtisodiy faollashishi ommaviylashib, uning boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan aloqalari kuchayadi, funktsional jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga kiradi va faollashadi.

XULOSA

Yoshlarning iqtisodiy faolligini axloqiy va estetik qadriyatlar asosida shakllantirish, fuqarolik jamiyatining umumaxsiologik qatlami, reglamenti talablaridan kelib chiqib rivojlantirish, hozirgi kunda dunyoda yoshlar o'rtasidagi etikalogik muammolarni keskinlashishi – bu masalaga falsafiy yondashishni talab qiladi. O'tgan asrda dunyo aholisining iqtisodiy jihatdan faollashishi natijasida "yangi iqtisodiy tafakkurga ega inson" vujudga kelib, uning faoliyati natijasi ekologik, etikalogik muammolar yuzaga keltirdiki, bu globallashtirishni salbiy oqibatlari, "ommaviy madaniyat" illatlari singari holatlarga olib keldi. "XX asrda an'anaga aylangan, aksariyat hollarda keyingi jarayonlar rivojlanishi istiqbollari oldindan belgilab bergan, global muammolarni keskinlashtirgan "iqtisodiy odam", XXI asrga kelib vijdon, rahm-shafqat, hamdardlik, g'amxo'rlik, tabiatga mas'uliyatli munosabat sifatlariga ega bo'lgan "Yangi odam"ga o'z o'rnini bo'shatib berishi kerak". Endigi asrning

yangi iqtisodiy faol odami siymosida etikoekonomik, ekoestetik tafakkurning kognitiv shakllanganligini etikalogik fenomen sifatida ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арефьева Н.Т. Роль образования в системе глобальных ценностей // Личность. Культура. Общество.- М., 2008. Вып. 5-6. – С. 428.
2. Ашин Г.К. Философия составляющая элиталогии // Вопросы философии. - 2004 №7.С.64-72
3. Данилов А. Переходное общество. Проблемы системной трансформации. –М.: ООО «Харвест», 1998. – С.10.
4. Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. - 2014, №1. 27-бет.
5. Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Т.: Шарқ, 2001.- 37-бет.
6. Негматова Ш. Рақобатнинг онтологик табиати ва гносеологик хусусиятлари // Имом Бухорий сабоқлари журнали. 2017, 1-сон, 92-бет.
7. Норқулов С. Д. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари. Монография. – Т.: Navro'z, 2015.-93-бет.
8. Примов Ф. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини назорат қилишни оптималлаштириш истиқболлари. // Ижтимоий фикр- инсон ҳуқуқлари. № 3, 2016,-44-бет.